




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



FROM THE HISTORY OF HEROES OF THE SECOND WORLD WAR FROM JIZZAKH

J. A. Pardayev

Doctoral student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Jizzakh, Second World War, Eshankul Ismailov

Received: 03.08.24

Accepted: 05.08.24

Published: 07.08.24

Abstract: This article talks about the heroes of Jizzakh who participated in the Second World War, and their bravery is highlighted on the basis of archival sources and scientific literature.

JIZZAXLIK IKKINCHI JAHON URUSHI QAHRAMONLARI TARIXIDAN

J. A. Pardayev

Doktorant

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

МАҚОЛА НАҚИДА

Kalit so'zlar: Jizzax, Ikkinchı jahon urushi, Eshonqul Ismoilov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ikkinchı jahon urushida qatnashgan jizzaxlik qahramonlar haqida so'z yuritilib, ular ko'rsatgan jasoratlari arxiv manbalari va ilmiy adabiyotlar asosida yoritilgan.

ИЗ ИСТОРИИ ГЕРОЕВ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ ИЗ ДЖИЗАКА

Ж. А. Пардаев

Докторант

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Джизак, Вторая мировая война, Эшанкул Исмаилов

Аннотация: В данной статье рассказывается о героях Джизака, участвовавших во Второй мировой войне, и на основе архивных источников и научной литературы освещается их храбрость.

KIRISH

Xalqimiz asrlar davomida og‘ir sinovlarda, bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmas iroda va jasorat na’munasini amalda namoyon etib kelgan. O‘z ozodligi, erkinligi yo‘lida kurashib, behisob qurbanlar bergan ota-bobolarimiz jasorati xotiramizdan hech qachon o‘chmaydi.

Hozirgi kunda ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan minglab yurtdoshlarimiz xotirasini yod etish, jang maydonlaridan omon qaytgan bobolarimizga, front ortida og‘ir kunlarni sabr-bardosh bilan yenggan ajdodlarimizga mehr-oqibat ko‘rsatish tom ma’noda milliy an'anaga aylandi. [O‘zbekiston 2-jahon urushi davrida., 2023. 4-b.].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan tarixiy G‘alabani ta’minlashga ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining qo‘sghan hissasi beqiyosdir. Bugungi tinch va ozod, farovon hayotga erishish yo‘lida fidoyi ota-bobolamiz namoyon etgan mardlik va jasoratni el-yurtimiz hech qachon unutmaydi,” [O‘zbekiston Respublikas Prezidenti farmoni. PF-65-son. 2023] degan gaplari yuqorida fikrimizning isbotidir.

Ikkinchi jahon urushidagi g‘alaba mislsiz yo‘qotishlar va behisob qurbanlar evaziga qo‘lga kiritilgani barchaga yaxshi ayon. O‘zbek xalqi ham urushning achchiq azoblarini boshidan kechirdi. Yurtimizdan safarbar etilgan jangchilar urushning qaynoq nuqtalarida, turli hududlar mudofaasida qatnashib, ayovsiz zarbalarga duch keldi. Urush yillarda O‘zbekistonning barcha viloyatlari qatori Jizzax viloyatidan ham ko‘plab yoshlar frontga safarbar etilgan. Jizzaxlik jangchilar urushning dastlabki yillaridayoq fashizmni tor-mor keltirish uchun Moskva, Leningrad, Smolensk, Odessa, Sevastopol va boshqa shaharlar himoyasi, Praga, Varshava, Belgrad, Vena shaharlarini ozod qilish, Berlinni zabit etish uchun bo‘lgan janglarda jasorat ko‘rsatdilar [H.Haydarov, Q.Usmonov., 145-146 b.2009.].

ASOSIY QISM

1941-1945 yillarda hozirgi Jizzax viloyati hududidan 39620 kishi urushga safarbar qilindi. Ularning 7450 nafari janglarda qahramonlarcha halok bo‘ldilar. 4600 dan ortiq jizzaxlik jangchilar orden va medallar bilan mukofotlandilar. Jizzax viloyati hududidan ikkinchi jahon urushiga safarbar etilgan jangchilarning umumiy soni arxiv materiallari va dala tadqiqotlari asosida qayta o‘rganildi. Arxiv materiallari asosida jizzaxlik ikkinchi jahon urushi qahramonlarining (Sovet Ittifoqi Qahramonlari) soniga aniqlik kiritildi.

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushida Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo‘lgan jizzaxliklarning qahramonliklari arxiv va dala tadqiqotlari ma’lumotlari asosida yortiladi.

Eshonqul Ismoilov. 1-Belorussiya fronti, 8-armiya 240-o‘qchi polk jangchisi. 1902 yil 1 martda hozirgi Jizzax viloyati, G‘allaorol tumani Turk qishlog‘ida tug‘ilgan.

1942-yil harbiy xizmatga chaqirilib, 1943 yildan 3-Ukraina va 1-Belarus frontlarida jang qilgan. Dnepr uchun janglarda Odessa va Belorussiya hujum operatsiyalarida qatnashgan. E.Ismoilov 1945 yil yanvar oyida Poznan shahar-qal'asini egallash uchun janglarda alohida qahramonlik va namunalarini ko'rsatdi. E.Ismoilov jangda dushmanning bir necha o'tochar nuqtasini va 40 ga yaqin dushman askarini yakson qildi. E.Ismoilov qahramonligidan ruhlangan batalyon hujumga o'tdi va dushman gospitali 400 ga yaqin yarador askarlari bilan qo'lga olindi [Герои советского союза узбекистанцы., 125-б. 1884.].

Poznan uchun bo'lgan keyingi janglarda E.Ismoilov 20 ga yaqin dushmanni qirib tashladi. 1945 yil 29 yanvar og'ir yaralangan E.Ismoilov jang maydonini tashlab ketmadi va jangni davom yettirdi.

Eshonqul Ismoilov SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1945 yil 31 maydagi qaroriga binoan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni va "Oltin Yulduz" medali bilan taqdirlandi. 1990 yil 20 iyulda vafot etgan [Х.Хайдаров, Қ.Усмонов., 147-б. 2009].

Jo'raxon Usmonov. 1922 yil 12-fevralda hozirgi Jizzax viloyati Yangiobod tumani Savat qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. U 1942 yilda Qizil Armiya safiga chaqirilib, mart oyidan boshlab harbiy harakatdagi armiya safida dushmanga qarshi janglarda ishtirot etdi [Герои советского союза. Краткий биографический словарь 2., 630-б. 1988.].

237-o'qchi polkining vzvod komandiri yordamchisi bo'lgan katta serjant Jo'raxon Usmonov 1943 yil 29-sentyabrda hozirgi Belarus Respublikasi Gomel viloyati, Karpovka qishlog'i yaqinida Soj daryosini kechib o'tishda qahramonlik namunalarini ko'rsatdi. Birinchilar qatorida daryodan suzib o'tgan katta serjant Jo'raxon Usmonov o'zining tirik qolgan 8 nafar safdoshlari bilan dushmanning 13 marta qilgan qarshi hujumlarini qaytardi va Qizil Armiya asosiy qo'shinlarining daryodan o'tishi ta'minlandi. Ushbu jangda Jo'raxon Usmonov og'ir yaralandi [Герои советского союза узбекистанцы., 327-б. 1984.].

SSSR Oliy Sovet Prezidiumining 1944 yil 15-yanvardagi qarori bilan nemis-fashist bosqinchilariga qarshi kurashda ko'rsatgan shaxsiy jasorati, berilgan harbiy topshiriqni namunali bajarganligi uchun katta serjant Jo'raxon Usmonov Sovet Ittifoqi qahramoni unvoni va "Oltin yulduz" medali bilan taqdirlandi. Katta serjant Jo'raxon Usmonov 1945-yil 14-fevralda vafot etdi [Н.Хайдаров, Қ.Усмонов., 147-б. 2009.].

Gubarkov Grigoriy Maksimovich. 1-Belorussiya fronti 34-motoo'qchi batalyon pulemyotchisi. U 1926 yil Shimoliy Qozog'iston viloyati, Ayirtour tumanida tug'ilib, uning ota-onasi 1930 yilda Jizzax shahriga ko'chib kelishgan. Gubarkov Maksimovich Jizzax shahrida 7-sinfni tugatgach 2-Jizzax mashina-traktor stansiyasida haydovchi bo'lib ishlaydi. 1943-yil noyabrdha Qizil Armiya safiga chaqirildi. 1944 yil iyul oyida 1-Belorus fronti, 2-tank armiyasi, 15-motoo'qchi brigada tarkibida janglarda qahramonlik ko'rsatdi. U Lyublin-Brest harbiy

operatsiyasi, Demblin (Polsha) shahrini ozod qilishda janglarda qatnashdi [Герои советского союза узбекистанцы., 85-б. 1984.].

1945 yil Varshava-Poznan harbiy operatsiyasida Gubarkov xizmat qilgan 2-tank armiyasi Magnushev platsdarmiga hujum qiladi va dushman qo'shinlarini yakson qilib Inovratslav (Polsha) shahriga yaqinlashdilar.

1945 yil 21-yanvar kuni shaharni egallash uchun dahshatli janglar boshlandi. Pulemyotchi Gubarkov birinchilardan bo'lib dushman pozitsiyasiga yorib kiradi va gitlerchilar chekinishga majbur bo'ladilar. Jangda og'ir yarador bo'lgan Gubarkov dushmanaga qarshi jangni davom ettiradi. U pulemyotda dushmanning 3 ta o'q otish nuqtasini yakson qiladi, 25 nafar nemis askari va ofitserlarini, shu jumladan, bir nafar polkovnikni yer tishlatadi. Gubarkovning qahramonligi jangda batalyonga muvaffaqiyat keltiradi [H.Haydarov, Q.Usmonov., 147-б. 2009].

Gubarkov Grigoriy Maksimovich janglarda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1945 yil 27-yanvarda qaroriga binoan qaroriga binoan Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni va "Oltin Yulduz" medali bilan taqdirlandi. Gubarkov gospitalda davolangach frontga qaytdi, urushni Berlinda g'alaba bilan yakunlandi. Urushdan keyin harbiy xizmatni davom ettirdi. 1951 yilda Jizzax shahriga qaytdi. 2008 yil 11 dekabrda vafot etdi.

Traynin Pyotr Afanasyevich. 1909 yil 18 iyunda tug'ilgan. Urushga qadar Samarqand viloyati, G'allaorol tumani don mahsulotlari davlat xo'jaligidagi haydovchi bo'lib ishladi. U 1941 yil iyun oyida harbiy xizmatga chaqiriladi 1943 yil 3 oktabrda Voronej fronti, 60-armiya, 150-tank brigadasi "T-34" tank mehanik-haydovchisi Traynin P.A. Kiyev viloyati Chernobil rayoni, Straxoles qishlog'i uchun bo'lgan jangda dushmanning 3 ta tankka qarshi quroli, 4 ta minomyot va 5 ta dushman o'q otish nuqtasini yakson qiladi. 1943 yil 5 oktabrda bo'lgan tengsiz jangda tank ekipaji a'zolaridan bir o'zi tirik qolgan bo'lsa ham, dushmanaga qarshi o'q otishni to'xtatmadidi. Natijada, dushmanning qarshi hujumlari to'xtatiladi [Герои советского союза. Краткий биографический словарь 2., 598-б. 1988].

1943 yil 17 oktabrda Qizil Armiyaning Dnepr daryosidan muvaffaqiyatli kechib o'tishi va daryoning G'arbiy sohilida mustahkam platsdarm tashkil etishda ko'rsatgan mardlik va qahramonligi uchun Traynin Pyotr Afanasyevich SSSR Oliy Soveti Prezidiumining qaroriga muvofiq Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni va "Oltin Yulduz" medali bilan taqdirlanadi.

1946 yil Traynin Pyotr Afanasyevich urushdan qaytgach G'allaorol davlat xo'jaligidagi bosh mexanik bo'lib ishladi. 1947 yil 161 ga. yerga arpa ekib, har gektar yerdan 31,35 s. hosil oladi [Герои советского союза узбекистанцы., 315-с. 1984].

1948 yil 26 aprelda 1947 yil davlatga qishloq xo'jalik mahsulotlarini topshirish rejasini ortig'i bajarganligi va lalmi yerlardan yuqoro hosil olganligi uchun Traynin Pyotr Afanasyevich Sotsialistik mehnat qahramoni unvoni va "O'roq va bolg'a" oltin medali bilan taqdirlanadi.

Traynin Pyotr Afanasyevich ham “Sovet Ittifoqi Qahramoni”, ham “Sotsialistik mehnat qahramoni” unvoniga ega bo‘lgan mashhur shaxs sifatida tarixga kiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda ikkinchi jahon urushi g‘alabasiga O‘zbekistonning barcha shahar va tumanlari aholisi bilan bir safda jizzaxliklar ham o‘zlarining samarali hissalarini qo‘shdilar. Jizzaxliklar ikkinchi jahon urushi davrida Samarqand viloyati tarkibida bo‘lgan Jizzax, G‘allaorol, Zomin, Forish, Baxmal (Qoraqishloq) tumanlarida harbiy safarbarliklar tashkil etildi. Urush yillarida jizzaxliklar front ortida qahramona mehnat qilib, frontga moddiy (kiyim bosh, oziq-ovqat, moddiy mablag‘lar va.b.) yordamlar yetkazib berildi.

Urush bo‘layotgan hududlardan O‘zbekistonga ko‘chirib keltirilgan aholi hamda yosh bolalar Jizzax shahri va tumanlaridagi “Mehribonlik uylari”ga, aholining xonadonlariga joylashtirildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining (PF-65-son) farmoni. Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida//<https://lex.uz/uz/docs/6456687>
2. Герои советского союза узбекистанцы. Ташкент. «Узбекистан». 1884
3. Герои советского союза. Краткий биографический словарь 2. Москва. Военное издательство. 1988.
4. O‘zbekiston ikkinchi jahon urushi davrida (To‘rtinchi kitob-albom). Toshkent. “O‘zbekiston”. 2023
5. H.Haydarov, Q.Usmonov. Jizzax tarixi (Jizzax shahri haqida tarixiy xotira va lavhalar). Toshkent. “O‘qituvchi”. 2009.